



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alihanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukharram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Мусурманова Айниса Мусурмановна (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович – доктор экономических наук, профессор.

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – доктор педагогических наук, профессор.

Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ – доктор социологических наук, доцент.

Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ – доктор исторических наук, профессор.

Карамян Мариэтта Ҳачатуровна – доктор психологических наук, профессор.

Муслимов Нарзулла Алиханович – доктор педагогических наук, профессор.

Нурматова Мукхаррам Ахмедовна – доктор философских наук, профессор.

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – доктор юридических наук, профессор.

Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна – доктор юридических наук, доцент.

Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна – доктор философии юридических наук (PhD).

Содикова Шоҳида Мархобаевна – доктор социологических наук, профессор.

Зоҳидов Азаматжон Азамович – доктор экономических наук, профессор.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakromjon Atkhamjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shohida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

MAHALLA VA MENEJMENT

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba	4
Abduramanov X., Zokirov Sh. Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi	15
Xoliqova M. Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi	29
Norqulov H.D., Jumanov Sh.S. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari	40
Sodiqov F.F. Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi	55

OILA VA JAMIYAT

Yulchiyeva D.X. Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
Бабаджанова Н. Закономерности функционирования семьи как системы	71
Kholikulova Kh.Yu. Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people	81
Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
Arabov N.U., Nasimov D.A. Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	98

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Bayjonov F.B. Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish	104
---	-----

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Nurmatov A.N. Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
Narmetova Y.K. Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari	117
Avezova D.G. Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari	126

Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti,
mustaqil izlanuvchisi



OILADA BARQAROR MUHITNI TA’MINLASHDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING O’RNI

ANNOTATSIYA. Mazkur tezisda oilada barqarorlikni saqlashda milliy qadriyatlargaga tayangan holda yoshlarimizni milliy hunarmandchilikka o’rgatish, ularni samarasiz vaqt sarflamaslikka erishish xususida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация. Тезис этой диссертации - научить нашу молодежь национальным ремеслам, основанным на национальных ценностях в поддержании стабильности в семье, чтобы не тратить время зря.

Annotation. The thesis of this dissertation is to teach our youth national crafts based on national values in maintaining stability in the family, so as not to waste time.

Kalit so‘zlar: oila, hunarmandchilik, milliy hunarmandchilik

Ключевые слова: семья, ремесла, народные промыслы

Keywords: family, crafts, handicrafts

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan “Mahallalarda xalq hunarmand-chilagini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha yoshlarni tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallahsga tayyorlash, ularga zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikka oid bilimlarni o‘rgatish lozim.

Kirish. Yurtimizda oilada milliy hunarmandchilik orqali tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati rivojiga qaratilayotgan e’tibor ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, davlat eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini hamda turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Yurtimizda oilada milliy hunarmandchilik orqali tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati rivojiga qaratilayotgan e’tibor ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, davlat eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini hamda turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Hunarmandchilik – bu aholining aniq talablaridan kelib chiqib, aholi yoki xo‘jalik subyektlarining uy-ro‘zg‘or, estetik va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida yakka buyurtma asosida oz miqdorda tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan kichik tadbirkorlikning bir ko‘rinishidir. Hunarmandchilik insoniyat ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelgan bo‘lib, jamiyat rivojlanishi davomida dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqqan va o‘z taraqqiyoti davomida takomillashib borgan hamda turli xil ixtisosliklarga – kulolchilik, temirchilik, toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik, zardo‘zlik, ko‘nchilik, o‘ymakorlik va hokazolarga ajralgan. Hunarmandchilik hamma joyda bir tekisda rivojlanmagan, faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, ma’lum bir hududlardagina rivojlangan, masalan, sifatli tuproq bor joyda kulolchilik, jun va teri ko‘p joyda to‘qimachilik va ko‘nchilik, daryo bo‘ylarida kemasozlik rivojlangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda, mahalla va oilalari tinchligini ta’minlash milliy qadriyatlarimiz sanalgan qadimiy kasb-hunar an’analari, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish hamda davom ettirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan yurtimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil natijalari joylarda aholini tadbirkorlik (hunarmandchilik)ka jalb qilish va bu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni ta’minlash, o‘z mehnati bilan daromad topish istagida bo‘lgan

mahalla fuqarolariga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlari talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-avgustdag'i "Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik subyektlari bilan aholi o'rtaida kooperatsiyani rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5213-son qarori, 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5242-son Farmonida qayd etilgan vazifalarni amalgalashirish maqsadida "Mahallalarda xalq hunarmandchiligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusi dolzarb muammo sifatida ilmiy ishlarni amalgalashirishni talab qilmoqda.

"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan "Mahallalarda xalq hunarmandchiligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha yoshlarni tadbirkorlik ko'nikmalarini egallahga tayyorlash, ularga zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikka oid bilimlarni o'rgatishi lozim. Bu esa ularning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlash uchun mehnat qilishi, o'z vaqtini foydali ishlarga sarflashiga ko'maklashadi.

Qayd etilishicha, hunarmandchilik faoliyati – xalqning tarixan qaror topgan, maxsus bilimlar, ko'nikmalar, sir-asrorlar, uslublarga asoslanib, qo'l mehnati, asbob-uskunalar va kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanib, an'anaviy hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda maishiy, uy-ro'zg'or, badiiy buyumlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), tayyorlash bo'yicha ijodiy yoki professional faoliyat.

Hunarmandchilik faoliyati subyektlari hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanadigan hunarmand va hunarmandning shogirdidir.

Hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs, bu hunarmand sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxsdir.

Hunarmand, bu O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining Ustavida belgilangan tartibda hunarmand maqomiga ega bo'lib, hunarmandchilik faoliyatini mustaqil ravishda yoki shogirdlari bilan birga amalgalashirayotgan jismoniy shaxsdir.

Shogird (hunarmandning shogirdi), hunarmanddan hunarmandchilik mahsulotlari (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish faoliyatini o'rganayotgan jismoniy shaxsdir.

**Davr taqozosi
bilan hunarmand-chilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi.
Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordilar.
Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasb-koriga qarab shakllangan**

“Usta-shogird” maktabi hunarmand tomonidan shogirdga hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlashni o‘rgatishga yo‘naltirilgan munosabatlar yig‘indisidir.

Hunarmandchilik faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxs amaldagi qonun hujjatlarida hunarmandga nisbatan o‘rnatilgan qoidalariga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tadi, qayta o‘tkaziladi va uning faoliyati tugatiladi.

Hunarmand O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining Ustavida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tadi, qayta o‘tkaziladi va uning faoliyati Uyushmaning qaroriga asosan tugatilishi mumkin. Hunarmand Uyushmada ro‘yxatdan o‘tganligi va qayta o‘tkazilganligi to‘g‘risida Uyushma tomonidan belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi, unda mazkur shaxsning hunarmand maqomi va shug‘ullanadigan hunarmandchilik faoliyati yo‘nalishi ko‘rsatiladi.

Hunarmandning faoliyati quyidagi sabablarga ko‘ra tugatilishi mumkin:

- agarda hunarmandning faoliyati Badiiy kengash tomonidan ko‘rsatilgan yo‘nalishlarga mos emas deb topilsa;
- agarda hunarmand Uyushmaga a’zolik badalini to‘lamasa;
- hunarmand bir paytning o‘zida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ham davlat ro‘yxatidan o‘tishi mumkin.

Hunarmandchilik faoliyati hunarmand tomonidan ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi, bu davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada aks ettiriladi.

Hunarmand o‘z mahsulot va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlash va sotishda bir vaqtning o‘zida ko‘pi bilan o‘n nafar shogirdni jalb etishga haqli.

Binolarni qurish, qayta tiklash, ta’mirlash ishlarida ustunlik va imtiyozlar milliy uslubdagisi bezak, tasvir, naqqoshlik usullaridan foydalanuvchi yog‘och o‘ymakori, koshinkor va ganch o‘ymakorlariga beriladi.

Maqsad va uni asoslash. Hozirgi kunda yoshlarni tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallahsga tayyorlash, ularga zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikka oid bilimlarni o‘rgatish lozim. Oiladagi barqaror muhitni saqlashda yana bir muhim omil bu – bugungi kunda mehnat tarbiyasidir. Mehnat tarbiyasisiz oiladagi barqarorlikni saqlash mumkin emas. Oilaviy tarbiyada bola hayotiy qadriyatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan ijtimoiy omillar sifatida mazkur oilaning yaqin va uzoq qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilar, atrofdagilar va mahalla ahli katta rol o‘ynaydi. Ularning bola fe’l-atvorini to‘g‘ri yo‘naltira olishi, bolaga to‘g‘ri yo‘lni, uning qadriyatlarini sindirmasdan ko‘rsata olish, bolani to‘g‘ri yo‘naltirib, rag‘batlantira olish juda

*Dunyoning
barcha taraqqiy
etgan davlatlari
qatorida yurtimiz
yoshlarining
ta’lim-tarbiyasi,
ularni kasb-
hunarga oid bilim
va ko‘nikmalarini
egallahsga
yo‘llash, bolalar
mehnatini tashkil
etish muammolari
dolzarb
masalalardan
hisoblanadi.*

katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kasbga bo‘lgan to‘g‘ri munosabat o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlaridandir.

Tarixga nazar tashlab, hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi. Turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar) ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor erda to‘qimachilik, sifatli xomashyo bor erda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko‘p erda to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p erda yog‘ochsozlik, ma’danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi o‘rta asrlarda hunarmandchilikning eng ko‘p tarqagan turi bo‘ldi. Hunarmandchilikning bu turi natural xo‘jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasb-koriga qarab shakllangan (masalan, 20-asrning boshlarida Toshkentda ko‘nchilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o‘qchilar, kosiblar mahallalari bo‘lgan).

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xalq hunarmandchiligi o‘zbek xalqining mehnati samarasi, badiiylik, garmoniya va go‘zallikni anglashga yo‘naltirilgan ongli faoliyati mahsuli bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyatida xalqning moddiy va ma’naviy boyliklarini mujassam etadi. Shunga ko‘ra, xalq hunarmandchiligi odamlarning kundalik maishiy ehtiyojlarini qondirish manbayi, xalq badiiy tafakkurining namoyishidir. So‘nggi bir necha yillarda o‘zbek xalq hunarmandchiligi keskin ravishda oyoqqa turib, nafaqat ichki bozorni, balki butun dunyo bozorini egallash yo‘lidan ketmoqda.

*Xalq
hunarmandchiligi
o‘zbek xalqining
mehnati samarasi,
badiiylik, garmoniya
va go‘zallikni
anglashga
yo‘naltirilgan ongli
faoliyati mahsuli
bo‘lib, o‘z mazmun-
mohiyatida xalqning
moddiy va ma’naviy
boyliklarini
mujassam etadi.*

Hammamizga ma'lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim maqsadi yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir. Dunyoning barcha taraqqiy etgan davlatlari qatorida yurtimiz yoshlarining ta'lim-tarbiyasi, ularni kasb-hunarga oid bilim va ko'nikmalarini egallahsga yo'llash, bolalar mehnatini tashkil etish muammolari dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyatini nazarda tutish muhim. Bu maktablar o'quvchilarning imkoniyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishlarini chuqur, tabaqlashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

*Bugun har
jihatdan omilkor,
mas'uliyatli,
tashabbuskor va
jamiyat taraqqiyoti
uchun ongli-faol
ijtimoiy shaxsni
tarbiyalash, uni o'z
salohiyatiga mos
hunarga yo'naltira
olish nafaqat ta'lim
tizimi, balki butun
bir jamiyatning
muhim vazifalardan
birdir.*

Bolalarni maktablarda hunarga o'rgatishda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:


1. Hududlarda yoshlar muammosining mavjudligi va muammolar asosiy qismining yechimlari.

2. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasida, ularga turli kasb-hunarlarni o'rgatishda pedagog murabbiylar, ustozlar mehnati hamda oilalarning bola tarbiyasidagi roli yetakchi omillardan ekanligi.

Demak, yoshlarda zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ehtiyojlar asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan kengayib, takomillashib boradi.

Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli-faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos hunarga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimi, balki butun bir jamiyatning muhim vazifalardan birdir. Qolaversa, respublikamizda kechayotgan bugungi keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, beto'xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o'zaro mutanosibligiga erishish uchun bola tarbiyasida pedagog va oila hamkorligi ta'sirini kuchaytirish lozim.

"Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida mehnat fanini aynan maktab o'qituvchisimi yoki "Hunarmand" uyuşmasiga a'zo bo'lgan usta-hunarmand o'tishini hohlaysizmi" savoli yuzasidan respublikamiz bo'ylab 200 nafar respondentlar quyidagi ko'rsatkichda javob bergenlar.



Umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida mehnat fanini kim o‘tishi ma’qul?

Bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlari mavjud bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘quvchi ongiga yetkazish, esga saqlash, qayta esga tushirish, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondoshuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilardan olgan bilimlarini amalga tatbiq etish, ma’lum natijalarini qo‘lga kiritish, to‘ldirish, boyitish, o‘zgartirish, o‘zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo‘lish talab etiladi. Mazkur o‘zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi. O‘quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o‘ziga xos psixologik yondoshuvni talab etadi. Shu sababli o‘quvchilar ust-hunarmand bilan yelkama-yelka o‘rganishni afzal hisoblashadi.

O‘zbek xalqining azaliy qadriyatlari tizimida farzand tarbiyasi, ayniqsa, uni kasb-u hunar egasi qilib mustaqil hayotga tayyorlash masalalasi xalq pedagogikasining eng muhim vazifalaridan sanalgan. Mana shu vazifani amalga oshirish usullaridan biri – milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, uni yosh avlodga o‘rgatish sanalgan. Shunga ko‘ra, xalq hunarmandchiligidni biz oilada kasbiy ijtimoiylashuvning muhim omillaridan biri deb atay olamiz.

Bolada milliy hunarmandchilikni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, hunarmandlar kasbiga nisbatan hurmat va e’tibor, shu orqali esa avlodlarning mehnat an’analarini qadrlash va mehnat natijalaridan zavqlanish hissini shakllantirish yoshlarda oilaviy kasbiy ijtimoiylashuv muhitining bosh shartlaridan biri sanaladi. Oilaviy ta’lim-tarbiya jarayonida mehnat qadriyatlarining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi.

*Jamiatni ma’naviy-
axloqiy, iqtisodiy
va ijtimoiy jihatdan
taraqqiy ettirishda
kishilar o‘rtasidagi
o‘zaro munosabatlar
muhim ahamiyat
kasb etadi.*

Mehnat qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida ta’lim-tarbiyaning eng maqbul shakl, usul va vositalarini amaliyotga joriy etishda ota-onalar innovatsion pedagogik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi zarur.

Jamiyatni ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy ettirishda kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Hunarmandchilik negizida ham insonlar o‘rtasida turli iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va ruhiy munosabatlar shakllangan. Iqtisodiy munosabatlar hunarmand va uning mehnati talabgori o‘rtasida insoniy tenglik, xushmuomalalik, o‘zgani hurmat qilish, o‘zganining fikrini anglash, o‘z fikrini inson qadrini poymol etmasdan ifoda qilish, adolat mezonlariga amal qilish asosida tashkil qilingan. Ijtimoiy munosabatlar esa hunarmand mehnatidan butun jamiyat ahli foyda ko‘rishi, hunarmand o‘z mehnati orqali insonlar og‘irini yengil qilishi, inson ehtiyojlariiga xizmat qilishi asosiga qurilgan. Shunga ko‘ra, barcha davrlarda hunarmand mehnatini qadrlash falsafasi jamiyatda targ‘ib qilingan.

*Milliy
qadriyatlаримизни,
урф-одатларимизни
акс еттирувчи
миллий hunarmand-
chilikimizni
saqlab qolish, uni
dunyo tarqatish
va avlodlarga
yetkazish manashu
yosh hunar-
mandlarimizni
qo‘lidadir.*

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda hunar dargohlari va to‘garaklari faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimiz orasidan o‘tkir zehnli, qobiliyatli yoshlarni izlab topib, hunar o‘rganishga jalgan etish ustozlar, ota-onalar zimmasidagi vazifalardan biri sanaladi. Hunarmandchilikni rivojlantirish aholini ish bilan band etishning muhim omili sifatida nafaqat jamiyatning milliy va ma’naviy salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi, balki milliy boylikni ko‘paytirish, aholining turmush farovonligini oshirish kabi ustivor vazifalarning ijrosini amalga oshiradi.

“Mahallalarda halq hunarmandchiligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadigi, mahallalarda bugungi kunda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun bir qancha muammolarga duch kelinmoqda. Jumladan,

- Aholining hunarmandchilik haqida ma’lumotlarni to‘liq shakllanmaganligi;
- Yoshlarni tadbirkorlikka va hunarmandchilikka qiziqishi kam ekanligi;
- Hunarga qiziqqan yoshlarni qayerda o‘rganishlari mumkinligi haqida ma’lumotga ega emasligi;
- Usto-shogird an’anasida hunar o‘rganish imkoniyatlari togrisida ma’lumotga ega emasligi;
- Hunarmandlar o‘zlariga mos va qiziqishi yuqori bo‘lgan shogirdlar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati kamligi;

- Usta va shogirdlarga to‘lanadigan ish haqi miqdorlari haqida ma’lumot kamligi va qaysi normativ hujjatlar asosida berilishi to‘g‘risida ma’lumotga ega emasligi;
- Usta-hunarmandlar o‘rgangan hunarlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan berilgan imtiyozlar haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligi;
- Usta-hunarmandlar o‘z ish faoliyatlarini jarayonini video-roliklar tarzida suratga olib ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish kabi ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari yetarli emasligi;
- Onlayn savdo va savdo ko‘rsatgichlari yetarli darajada emasligi;
- Hunarmandchilikni barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hududlardagi aholining savodxonligi kamligi sabab bўlimoқда.

Ko‘rsatilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilishi kerak bo‘ladi: ijtimoiy tarmoqlar (you tube)ga master klass darslarini joylashtirish va OAV orqali seminarlar, yig‘ilishlar tashkil qilish; OTM, KHK, litsey va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fan sifatida o‘qitilishi; MFY va QFYlari qoshida zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan ustaxona va bepul kurslar hamda treninglar tashkil qilish; Hunarmandlar tomonidan ko‘rgazmalar, yarmarkalar tashkil qilish; chet ellik hunarmandlar bilan tajriba almashish tizimini yaratish kerak; Hunarmandchilik yo‘nalishida joriy etilgan ish haqi va stipendiyalar tog‘risida ko‘proq ma’lumot tarqatish; Hunarmandchilik mahsulotlarini yasalishini master klass sifatida maktab va bog‘chalarda olib borish va bolalarga moslab qiziqarli, rasmi kitoblar nashr qilish va media-darsliklar yaratish; Hunarmandchilik mahsulotlarini chetga eksportini ko‘paytirish, ularga imtiyozlar berish orqali talabni oshirish; Hunarmandlar ish joyiga ekskursiyalar uyuştirish; ota-bobolaridan hunarmandchilik sir-asrorlarini o‘rganib, ularni farzandlari va nabiralariga o‘rgatib kelayotgan fahrli usta-hunarmandlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish orqali hunarmandchilikni rivojlantirishga erishiladi. Ayniqsa bugungi kundagi internetdagi o‘yinlar mukkasidan ketgan yoshlarga o‘zimizning milliy hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishga erishiladi. Zero milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni aks etttiruvchi milliy hunarmandchiligidan saqlab qolish, uni dunyo tarqatish va avlodlarga yetkazish manashu yosh hunarmandlarimizni qo‘lidadir.

Mazkur xulosalar asosida bugungi kundagi holatni yanada yaxshilash va keksalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya qilinmoqda:

1. Respublika “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda hunarmandchilikni barcha 34 yo‘nalishi, hunarmandlar haqida ma’lumot,

*Hunarmandlar ish
joyiga ekskursiyalar
uyushtirish; ota-
bobolaridan
hunarmandchilik
sir-asrorlarini
o‘rganib, ularni
farzandlari va
nabiralariga
o‘rgatib kelayotgan
fahrli usta-
hunarmandlar
bilan uchrashuvlar
tashkil qilish orqali
hunarmandchilikni
rivojlantirishga
erishiladi. Ayniqsa
bugungi kundagi
internetdagi o‘yinlar
mukkasidan
ketgan yoshlarga
o‘zimizning milliy
hunarmandchilikka
bo‘lgan
qiziqishlarini
uyg‘otishga
erishiladi.*

*O'tkazilgan tadqiqot
natijalari asosida
olingan xulosalar
shuni ko'rsatdiki,
hunarmandchilik
faoliyatini
mahallalarda
ayniqsa yoshlar
o'rtasida
rivojlantirishda
targ'ibot-
tashviqot ishlarini
kuchaytirish,
shu bilan birga
hunarmandlarga
bir qator imtiyozlar
berish orqali
rivojlantirish o'z
samarasini berishi
aniqlandi.*

ularga berilgan imtiyozlarni o'zida aks ettirgan amaliy tavsiyalar kitobchani barcha hududlarda qo'llash;

2. Respublika "Hunarmand" uyushmasi bilan hamkorlikda mahallalarda amaliy tavsiyalar kitobchasini qo'llash, ushbu kitobchani tarqatish va undan foydalanish bo'yicha mahallalarda o'quv seminarlari tashkil etish, aholi orasida tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borish;

3. Ushbu qo'llanma yuzasidan o'sib kelayotgan yosh avlodni xalq hunarmandchiliga qiziqtirish uchun Maktabgacha ta'lim va Xalq ta'limi vazirliklari bilan hamkorlikda bog'cha va maktablarda amaliy tavsiyalar kitobchasi bo'yicha o'quv soatlari tashkil etish;

4. amaliy tavsiyalar kitobchasini aholi orasida keng targ'ib qilish, ushbu qo'llanmaning mazmun-mohiyati, qo'llanilishi va ijobjiy tomonlari to'g'risida ma'lumot tarqatish uchun O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda "Oilaviy" va "Mahalla" kanallarida turkum ko'rsatuvlar yaratish.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalar shuni ko'rsatdiki, hunarmandchilik faoliyatini mahallalarda ayniqsa yoshlar o'rtasida rivojlantirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, shu bilan birga hunarmandlarga bir qator imtiyozlar berish orqali rivojlantirish o'z samarasini berishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги "Хунарманчиликни янада ривожлантириши ва хунарманларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаши чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-5242 сонли фармони.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, – Тошкент: Давлат Миллий нашириёти, 2005. – 392 б.
3. Маҳмудова М. Касб ҳақида ўйлар. Методик қўлланма. – Тошкент, 1992. – 20 б.
4. Ниионалиев У.Н., Шодиев Н.Ш., Муслимов Н.А. Мехнат таълимидан "Касбга йўналтириши асослари" курси бўйича методик қўлланма. – Тошкент, 2004. – 12 б.
5. Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириши. Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 305 б.
6. Мусурмонова О. Машнавий қадриятлар ва ёилар тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
7. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 264 б.
8. <https://kun.uz/news/2020/04/13/hunarmandchilik-faoliyati-togrisidagi-qonun-loyihasi-elon-qilindi>
9. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/41_R_Abdullayeva.pdf

**Psixologlar
autik bolalarga
chet tillari bilan
shug‘ullanishni
tavsiya etadi.**

**Ehtimol,
muallimlarning
katta miqdordagi
sxema va
gaplarni tuzishda
algoritmlardan
foydalangan
bo‘lganligi uchun
ham bunday
bolalar o‘quv
materialini osonroq
o‘zlashtiradi.**

ruhan toliuvchanlik xos bo‘lib, ular tezgina jismonan ham toliqib qoladi. Shuning uchun ularga ishning individual tarzi zarur bo‘lib, uning diqqatini bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga ko‘chirish sharoitlarining yaratilishi muhimdir. Autik bola bilan uyda ishlab, ta’lim berayotgan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kuzatishicha, bunday bola bir faoliyat turini chalg‘imasdan 10 daqiqa davomidagina bajara olgan. Zero, u bola bilan individual tartibda ishlagan. Maktabgacha ta’lim muassasasida bu muammoni osonlikcha hal etish mumkin: bolaga qurbi yetmaydigan topshiriqlarni berish kerak emas. Maktabda esa o‘qituvchi bolada toliqish alomatlari kuzatilganda yoki unda norozilik alomatlari paydo bo‘layotganda, unga berish ko‘zda tutiladigan kartochkalarni oldindan o‘ylab topib, individual topshiriqlarni yozib qo‘yishi mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, autik bolalarga maqsadsiz monoton (bir xil) tartibdagi harakatlar, tebranishlar xosdir. Ularni stereotip ritmlardan chalg‘itish uchun hissiyotlarga boy ritmik o‘yinlar va raqsga oid harakatlardan foydalanish mumkin.

Doimiy tartibdagi mashg‘ulotlar harakatlardagi buzilishlarning kamayishiga imkon beradi. Agarda bola siz unga taklif qilayotgan talab va yo‘riqnomalarni qabul qilmasa, bolani ularni bajarishga mutlaqo majburlamang. Yaxshisi, o‘zi nimani qanday qilib bajargisi kelayotganiga yaxshilab e’tibor qarating, u uchun nima qiziq bo‘lsa, shuni bajarishiga ko‘maklashing. Bu bola bilan aloqa o‘rnatib olishingizga yordam beradi. Psixologlar autik bolalarga chet tillari bilan shug‘ullanishni tavsiya etadi. Ehtimol, muallimlarning katta miqdordagi sxema va gaplarni tuzishda algoritmlardan foydalangan bo‘lganligi uchun ham bunday bolalar o‘quv materialini osonroq o‘zlashtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каннер Л.»Аутические нарушения аффективного контакта» в переводе В. Е.Кагана/Л.Каннер // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2010.№ 1. – С. 85–88
2. Шрамм Р. Детский аутизм и АВА/ Р. Шрамм. – Москва. 2013. – С.208
3. Autizm: Innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi II Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya to‘plami. – В. 129–131
4. Nurmatova D.G. “Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashirish tizimini takomillashtirishning nazariy - metodologik asoslari”. – 2020. – В. 46-52
5. Bola va zamon jurnali. – № 8, 2019 yil.
6. <http://www.who.uz>

IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**
Razzakova N., Sobirova E.
Jabborov U.
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.